

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY ASOSLARI

Xolboyeva Navbahor Jomurod qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, Maktabgacha va Boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi talabasi

Artikova Nargiz Shuxratovna

Ilmiy rahbar Boshlang'ich ta'lim, nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, rivojlantirish, islohot, qaror, zamonaviy metodlar, texnologiyalar.

Annotatsiya

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning bir qismiga aylangan. Mamlakatimizda mazkur ta'lim tizimini rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada sohadagi o'zgarishlar va qarorlar, ularning mazmun mohiyati, shuningdek ushbu ta'lim tizimini zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalangan holda yuqori pog'onalariga olib chiqish tamoyillari va asoslari keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning ilk bo'g'ini hisoblanar ekan, mazkur ta'lim tizimi bolalarning shaxs sifatida sog'lom va komil inson sifatida shakllanishi ko'zlaydi. Tarbiyalanuvchilarda o'qish hissini uyg'otadi va bolani boshlang'ich ta'limga hamda muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Shuningdek quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim ehtiyojini, o'qishga qiziqish, kitob o'qish, maktabga borish hissiyotini shakllantirish;
- Bolalarga yuksak odob, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni mentalitetimiz asosida o'rgatish;
- Maktabgacha ta'lim sohasidagi muammolarni hal qilish;
- Bolalarda mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatuvchi ilg'or metodlarni qo'llash;

Maktabgacha ta'lim haqida so'z borar ekan uning tarixiga ham alohida to'xtalib o'tamiz. Dastlab bolalar bog'chasi 60–yillarda Rossiyada ochilishni boshladi. Bu davrdagi bog'chalarning asosiy vazifasi ta'lim va tarbiya emas, balki bolalarni bir joyda qarovda saqlab turish bo'lgan. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning yuzaga kelishi o'tgan asrning 10–20–yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Turkistonda xususiy bolalar bog'chalaridan tashqari boshqa maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lmagan. Biroq 1919 – yilda davlatdagi siyosiy va iqtisodiy holat munosabati bilan o'sib kelayotgan avlod sog'lig'ini saqlash, oziq –ovqat bilan ta'minlash masalalari bilan shug'ullanuvchi “Bog'chalarni himoyalash” kengashi tuzilgan. Bu ish qaysidir ma'noda aholining maktabgacha ta'lim muassasalariga bo'lgan talabning oshishiga va bu sohaning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Ammo shunga qaramay bu davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlarining kamligi, yetuk kadrlarning yetishmasligi, bolalarga ta'lim tarbiya berish sifati va bolalar qamrov darajasining pastligi asosiy muammolardan biri bo'lib qolavergan.

Hozirgi kunda nafaqat mamlakatimizda balki boshqa davlatlarda ham maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha keng islohotlar olib borilmoqda. So'ngi yillarda maktabgacha ta'limning yangi tarmoqlari shakllanayotganini ham ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida maktabgacha ta'limning ko'rinishlaridan biri "DMTTlari" va "NDMTT"larini keltirish mumkin. Bolalarga xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar soni kundan-kunga ko'payib bormoqda. Bularning barchasi mamlakatimizda ta'lim tizimiga qaratilgan e'tibor va erkinliklar, shu bilan birga bolalarning qiziqishlarini rivojlantirish, jamiyatga foydasi tegadigan shaxs bo'lib yetishishiga berilgan imkoniyatlar mahsulidir. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 8-moddasi maktabgacha ta'lim va tarbiyaga bag'ishlanganligi ham buning yaqqol misolidir.

«Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.» ("Ta'lim to'g'risidagi" qonun, 8-modda).

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlardan yana biri Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-sonli qarori va mavzuga bevosita bog'liq bo'lgan BMTning bolalar jamg'armasi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magi yordamida yaratilgan maktabgacha ta'lim muassasalarining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturidir.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilari hamda o'zlari uchun turli sohalar bo'yicha dasturlar, qo'llanmalar, tavsiyalar, qiziqarli kitoblar, aqlan va jismonan rivojlantirishga yordam beradigan turli tuman o'yinchoqlar va ta'lim tarbiya qurollari yaratiladi. Ilk qadam davlat dasturida ham o'yinlar ularning mazmun mohiyati haqida va pedagogik jarayonda o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati hisoblanadi. Shu jumladan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar bolalar o'yiniga yordam berishlari juda muhim.

O'yin vaqtida bolalar o'z o'rtoqlari bilan, kattalar bilan, o'yinchoqlar bilan gaplashadilar. Jamoaviy o'yin o'ynashganda esa nima qilish kerak? Qanday harakat qilish kerak? Nimani qurish yoki yasash kerakligi haqida muloqot qilishadi. Bu jarayonda ularda bir qancha sifatlar shakllanadi;

- Kommunikativ qobiliyati
- Mustaqil fikrlash qobiliyati
- Fikrni erkin bayon eta olish qobiliyati
- Xotira mustahkamligi
- Jamoa fikrini tinglay olish va birgalikdagi harakat ko'nikmalari
- Tezkorlik
- Sensor matorik harakatlar va boshqalar.

Tarbiyachidan esa o'yinni shunchaki chetdan kuzatib turish emas balki uning qoidalari haqida bolalarga tushuncha berish va to'g'ri olib borilishiga rahbarlik qilishi lozim. Agar tarbiyachi quyidagilarni hisobga bola tarbiyasida ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

- O'yinni to'g'ri tanlasa
- Individual va yosh xususiyatlarini hisobga olsa

- Kerakli didaktik materiallarni to'g'ri tanlay olsa
- Mateariallarni faoliyat jarayonida to'g'ri qo'llasa va samarali foydalana olsa
- Xilma-xil o'yinlardan foydalansa(bir xillikdan qochish).

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilaridan yosh avlodni tarbiyalash katta mahorat talab etadi. Ular darsni shunchaki vaqt o'tkazish uchun emas, balki har bir bolaning xatti-harakatlarini kuzatib, ular bilan to'g'ri munosabatda bo'lishi va har kuni bola uchun qiziqarli hamda uning aqliy va jismoniy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan yangi metod va ishlanmalardan foydalanishga e'tibor qaratishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tizimi barkamol shaxsni voyaga yetishtirishda o'rni kattadir. Ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish talab etiladi. Bu tarbiyachilardan mahorat talab etadi. 3-7 yoshli bolalarda rang-barang narsalarga, rasmlarga qiziqish kata bo'ladi. Ular eshitgandan ko'ra ko'rganda, ushlab his qilganida ko'proq eslab qoladilar. Shu sababli tarbiyachi bolalarni diqqatini jalb etadigan materiallardan foydalanishi, turli metodikalar ustida izlanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha pedagogika o'quv qo'llanma. Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna <Toshkent 2022>
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim To'g'risidagi Qonuni.8-modda
3. Ilk qadam o'quv dasturi asosida didaktik o'yinlar orqali bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish. Abobakirova Zulayho Mirzohidovna.
4. G'ulomjonova, D., & Artikova, N. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 112-117.
5. Shuxratovna, A. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTUR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. *Scientific Impulse*, 1(4), 1592-1594.
6. SHuxratovna, A. N., & Muxiddinovna, I. S. (2023). INGLIZ TILI DARSLARIDA TOVUSHLARNI TO'G'RI TALAFFUZ QILISHNI O'RGATISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 305-309.
7. Shukhratovna, A. N., & Irodakhon, K. (2023). English Teaching Elements in Primary School Using Clil Technology. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(4), 790-793.
8. Shuxratovna, A. N. Abduvosiyeva Zuhra Isroil qizi.(2023). XORIJIY TILLARNI O'QITISH VA UNING XUSUSIYATLARI. *IQRO JURNALI*, 2(1), 331-340.
9. Artikova, N., & Nurmatova, S. (2023). PROJECT OF TEACHING THE WORLD OF ANIMALS IN ENGLISH CLASSES. *Modern Science and Research*, 2(5), 1136-1139.
10. Shukhratovna, A. N. (2023). THE INSTRUCTIVE LIFE PATHS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR FOR ALL. *PEDAGOG*, 6(2), 567-569.
11. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 91-98.
12. qizi, D. G. B. ., Darxonova Gulmira Burxon qizi, Yakubova Intizor Zafarovna, & Shuxratovna, A. N. . (2024). O'YINNING PEDAGOGIK JARAYONDA TUTGAN O'RNI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(4), 125-128. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/501>
13. Isroilova Sevinch Aqilbek qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna. (2024). BOSHLANG'ICH

TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA OLISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI. *Scientific Impulse*, 2(19), 108–110. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/15153>

14. Shuxratovna, A. N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(3), 116-118.
15. Raximboyeva Gulsanam Gulmirza Qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna (2024). SU'NIY INTELLEKT: FOYDALIMI YOKI ZARARLI ?. *Science and innovation*, 3 (Special Issue 18), 691-693. doi: 10.5281/zenodo.10806277